

OLIY TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING TARIXIY SHAKLLARI VA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDAGI BOSHQARUVNING ROLI

Boboqulova Sabohat Misratovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimini boshqarishning tarixiy shakllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim sifati bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining ta'lim sifati va barqaror rivojlanishdagi o'rni yoritiladi. Oliy ta'lim — har qanday jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi asosiy sohalardan biridir. Oliy ta'lim tizimini samarali boshqarish esa ushbu sohaning raqobatbardosh, zamonaviy va talablarga javob beradigan bo'lishini ta'minlaydi. Boshqaruv shakllari tarixiy jihatdan turlicha bo'lgan bo'lsa-da, ularning barchasi muayyan davr ehtiyojlariga mos shakllangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, boshqaruv shakllari, ta'lim sifati, strategik boshqaruv, korporativ boshqaruv, modernizatsiya.

XX asr boshlarida ko'plab mamlakatlarda, xususan sobiq Sovet Ittifoqi hududida oliy ta'lim davlat tomonidan qat'iy markazlashgan tarzda boshqarilgan. Bunda o'quv rejalari, dasturlar va hatto ilmiy izlanish yo'nalishlari ham yuqoridan turib belgilangan. Bu tizim bir tomondan yagona standartlar asosida kadrlar tayyorlanishiga yordam bergan bo'lsa-da, boshqa tomondan ijodiy erkinlikni cheklagan. Oliy ta'lim har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi hisoblanadi. Ushbu tizim orqali ilmiy salohiyatga ega, yuqori malakali mutaxassislar yetishtiriladi. Oliy ta'limning barqaror rivojlanishi esa ko'p jihatdan uni boshqarish tizimining qanday tashkil etilganiga bog'liq. Boshqaruvning tarixiy shakllarini tahlil qilish orqali zamonaviy ta'lim tizimining afzalliklarini chuqurroq anglash mumkin. Shu nuqtai nazardan, maqolaning maqsadi – oliy ta'limni boshqarishning tarixiy evolyutsiyasini o'rganish va ta'lim sifatini ta'minlashda boshqaruvning o'rnini ochib berishdan iborat. Autonomiya (mustaqillik) asosidagi boshqaruv. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ko'plab rivojlangan mamlakatlarda oliy o'quv yurtlariga ma'lum darajada mustaqillik berila

boshlandi. Bu yondashuv universitetlarga o'z strategiyasini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va ilmiy izlanishlarni mustaqil olib borish imkonini berdi. Ta'lim sifatining oshishida bu holat muhim o'rin tutdi.

Korporativ boshqaruv modeli. Zamonaviy global tendensiyalarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari korporativ boshqaruv tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tmoqda. Bu modelda manfaatdor tomonlar – talabalar, ish beruvchilar, jamiyat va davlat vakillari – qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. Bunday tizimda shaffoflik, samaradorlik va natijadorlik muhim o'rin egallaydi. Ta'lim sifatini ta'minlashdagi boshqaruvning roli. Boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri — uzoq muddatli strategiyaning ishlab chiqishidir. Rivojlangan oliy ta'lim muassasalari o'zining missiyasi, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari asosida rejalashtirish orqali sifatni barqaror ta'minlab boradi. Monitoring va baholash tizimlar. Ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish va baholash — samarali boshqaruvning ajralmas qismi. Ichki va tashqi baholash tizimlari orqali muassasa faoliyati tahlil qilinadi, kamchiliklar aniqlanadi va ular ustida ishlash strategiyalari belgilanadi. Resurslarni samarali boshqarish. Moddiy, moliyaviy va insoniy resurslardan oqilona foydalanish, ularni strategik yo'naltirish orqali sifatli ta'lim muhitini yaratish mumkin. Boshqaruv resurslarni taqsimlashda muhim rol o'ynaydi.

Sifatli ta'lim berish uchun malakali professor-o'qituvchilarni jalb qilish, ularni rag'batlantirish va doimiy malaka oshirish boshqaruvning muhim vazifalaridandir. Ta'lim sifatini oshirish uchun e'tiborni avvalo tizimga qaratish kerak. Ta'limda boshqaruvga doir mummolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, jamiyat hamda iqtisodiyotning keskin o'zgarib borishida.

Boshqaruv — bu tizimni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida uni sifatini ta'minlash, tartibga solish uchun ta'sir etishdir.

Amerikacha boshqaruvda — tashabbuskorlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik, taslikilotchilik, ishchanlik;

Yaponcha boshqaruvda — har bir xodimga g'amxo'rlik, ishlab chiqarishning ijtimoiy xavfsizligi, shakllanish istagi, icliki go'zallik;

Fransuzcha boshqaruvda—boshqaruv tizimini shakllantirish uchun insoniy madaniyat, yuqori darajadagi aloqadorlik madaniyati, milliy, tarixiy. madaniy an'ana elementlaridan foydalanish.

Menejment - bu inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'atida berilgan ta'rifga binoan u:

- boshqaruv hokimiyati va san'ati;
- resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar tushuniladi.

Pedagogik tizimni boshqarishning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- boshqaruvni demaralizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish;
- boshqarishni tizimlilik va yagonaliligi;
- boshqarishda markaz va hudud uyg'unligi;
- boshqaruvda yakka boshqaruv va jamoatchilik uyg'unligi;
- boshqaruvni ilmiy asoslanganligi;
- boshqarishda ma'lumotlarni to'liqligi va haqqoniyligi

Boshqaruvning ilmiy asoslanganligi prinsipi. Ushbu prinsip boshqaruv tizimini boshqaruv fanining so'nggi yutuqlari asosida tashkil etishni ifodalaydi. Rahbar pedagogik tizim va jamiyat rivojlanishining obyektiv tendensiyalarini, qonuniyatlarini tushunishi va hisobga olishi zarur. Boshqaruvni ilmiy asoslanganligi prinsipiga amal qilish pedagogik tizimni boshqarish holati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liqligiga va ishonchliligiga bog'liq.

Boshqarish vazifasi mohiyatli zaruriy, takrorlanuvchi xarakterli majmui bo'lib, yagona mazmun va maqsadga qaratilgan. Bunda boshqarish faoliyati bir-biriga bog'liq va alohida vazifalarni o'z ichiga oladi bunda boshqarish vazifalari rejalashtirish, tartibga solish, tashkil etish, sozlash, muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirish, izlash, faollashtirish, hisob-kitob kabi harakatlar orqali amalga oshiriladi. Boshqarish vazifalarini amalga oshirish uchun ta'lim muassasasida boshqarish tizimini tashkil etiladi. Bu asosan boshqarish sub'ekti direktor oliy o'quv yurtlarida esa rektor o'z navbatida boshqarish bo'g'inlarini tashkil etadi. Shu bo'g'inlar orqali u boshqarish ob'ektiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir mavjud ob'ekt rivojlanishini tezlashtirishga xizmat

qiladi. Yuqorida aytilganidek, boshqarish sub'ektlar faoliyatining harakatlari majmui bo'lib, har xil vazifalarni ado etish hisoblanadi.

Ta'limni boshqarish nazariyasida uning o'ziga xosligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning evolyutsiyasini tarixiy-pedagogik tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo'lib xizmat qilishi, ushbu boshqaruvning yetakchi paradigmasini kvalifikatsiya qilish funksiyasini bajarishi mumkin. Shubhasiz, ularning har biri boshqaruvni shakllantirish jarayonida u yoki bu tarixiy bosqichda ma'lum foyda keltirgan. Strategik menejment sohasidagi ishlarni tahlil qilish bunday boshqaruvning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, «strategiya» tushunchasining asosiy xususiyatlarini va uning «rivojlanish» va «prognozlash» tushunchalari bilan bog'liqligini aniqlashga imkon berdi.

Xulosa. Oliy ta'lim tizimini boshqarishning tarixiy shakllari turli davrlarda turlicha bo'lgan bo'lsa-da, ularning barchasi ma'lum maqsadlar yo'lida shakllangan. Hozirgi kunda esa boshqaruv zamonaviy tamoyillar — shaffoflik, natijadorlik va ishtirokchilik asosida olib borilishi lozim. Ta'lim sifatini ta'minlash bevosita samarali boshqaruvga bog'liq bo'lib, strategik yondashuv, monitoring, resurslarni oqilona boshqarish va kuchli kadrlar siyosati bu yo'nalishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimini boshqarish evolyutsiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, samarali boshqaruv usullari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Markazlashgan boshqaruvdan mustaqil va korporativ boshqaruvga o'tish orqali universitetlar erkinlik va mas'uliyatni uyg'unlashtirishga erishmoqda. Bugungi kunda strategik boshqaruv, raqamli texnologiyalar va sifat nazorati tizimlari asosida faoliyat yuritish oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. (2021). *Higher Education in a Digital Era*. Paris: UNESCO Publishing.
2. Clark, B. R. (1998). *Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation*. IAU Press.

3. Karimov A. (2022). Oliy ta'lim tizimida boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari. *Ta'lim va Innovatsiya*, №4, 65–72.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori. "Oliy ta'lim tizimini raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimiga moslashtirish to'g'risida", 2021 yil.
5. World Bank. (2020). *Improving Tertiary Education in Developing Countries*.
6. Abdeev R.F. Boshqaruv mexanizmi, uning genezisi va tizimni tashkil etuvchi roli // Falsafiy fanlar. - 1990. - No 4. - S. 105-113.
7. Afanasiev V.G. Dastur-maqсадlarni boshqarish; Jamiyatni ilmiy boshqarish; nashr 2 / ed. OK. Naumenko, G.P. Juravleva, V.V. Grigoryev. - M., 1978. - S. 45-87.
8. Davydov V.V. Rivojlantirib ta'lim nazariyasi; RAO, psixo. in-t, xalqaro